



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOSHLAR SIYOSATI VA SPORT
VAZIRLIGI**

**МИНИСТЕРСТВО МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ И СПОРТА
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**MINISTRY YOUTH POLICY AND SPORTS OF THE REPUBLIC OF
UZBEKISTAN**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

UZBEK STATE UNIVERSITY OF PHYSICAL CULTURE AND SPORT

**“OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH:
MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ONLAYN ANJUMAN**

2023 yil 15 aprel

TO‘PLAMI

Chirchiq-2023

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. T., 2019.
3. Р.Абдумаликов Т.Холдоров .Туризм.укув кулланма Тошкент.Укитувчи. 1988.
4. Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T., "Aloqachi" nashriyoti. 2008..
5. Журнал.Теория и практика физической культуры и спорта'. (Россия). №11. 1999.
6. Ye.Yu. Daurenov, M.I. Idrisov, A.K.Masharipov "Sport sog'lomlashtirish turizmi" nomli o'quv qo'llanma Chirchiq-2023 yil.

DAM OLISH OROMGOHLARIDA TURISTIK SAYRLARNI TASHKIL QILISH

Daurenov Eshboy

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti dotsenti

Tillayev Doniyor Raximovich

Alfraganus universiteti Sport faoliyati kafedrasini mudiri

Annotatsiya: *Dam olish lagerlarida turistik sayohatlarni tashkil etishning asosiy xususiyatlari sanab o'tilgan.*

Аннотация: *Перечислены основные особенности организации туристических поездок на базе отдыха.*

Annotation: *The main features of the organization of tourist trips at the recreation center are listed.*

Kalit so'zlar: *Turistik sayrlar, turistik sayohat, topografik shartli belgilar, azimut, kompas, xarita, turistik yo'l chizmasi.*

Ключевые слова: *туристские прогулки, туристическая поездка, топографические условные знаки, азимут, компас, карта, схема туристической дороги.*

Key words: *tourist walks, tourist trip, topographic symbols, azimuth, compass, map, tourist road scheme.*

O'zbekiston Respublikasi xalqlarining ijtimoiy va madaniy turmush sharoitida turizm muhim ahamiyat kasb etmoqda. Turizm jismoniy tarbiya tizimining muhim tarkibiy shakli sifatida aholini jismoniy chiniqtirish, mehnat

qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko'rish, madaniy hordiq chiqarish, ularning mehnatga va vatan mudofaasiga tayyorlashda eng zarur omillardan biri bolib hisoblanadi. Turizmning ijtimoiy mohiyatini hisobga olgan holda 1998 yilda chop etilgan umumta'lim maktablarni jismoniy tarbiya dasturida turizmga alohida etibor berilgan, ya'ni birinchi sinfdan boshlab 11sinf o'quvchilariga turizmdan me'yori ko'rsatilgan. Shuning uchun ham yozgi ta'til paytida bolalar va o'quvchilar dam olish lagerlarida turistik sayirlarni tashkil qilish va o'tkazish tavsiya etiladi. Turizmning mazmuni va vazifalari:

O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport tog'risidagi" (1994-2000) qonuning "Sanatoriya va kurort" muassasalarida dam olish uylarida hamda sayyohlik qo'nimgohlarida jismoniy tarbiya- sog'lomlashtirish ishlari tog'risidagi 20-moddasida Sanatoriya-kurort muassasalari, dam olish uylari hamda sayyohlik qonimgohlarining mamuryati dam oluvchilarning salomatligini mustahkamlash, kasaliklarning oldini olish va davolash uchun jismoniy mashqlardan, jismoniy tarbiyaning boshqa shakillaridan foydalanishlari shart deyilgan. Sanatoriya kurort muassasalarida, o'quvchilar dam olish lagerlarida dam olish uylarida turizmdan, ayniqsa piyoda yurish turizmi bilan shug'ullanish muhim ahamiyatga ega.

Bizning Respublikamuzning ko'pchilik qismini tog'li manzarali joylar egallagan, shuning uchun ham har yili maktab o'quvchilarining ko'pchiligi yozgi tatillarini dam olish lagerlarida o'tkazadilar.

O'quvchilar dam olish lagerlarining ish rejalarida har bir davrda bitta-ikkita turistik sayohatlarni o'tkazish belgilanadi, lekin ko'pchilik lager boshliqlari buni o'tkazishga qarshilik qiladilar turli xaf-xatardan qo'rqishadilar.

Hozirgi kunda Respublikamiz hududida 4-5 millionga yaqin aholining turizmning piyoda yurish, toqqa chiqish, sportcha chamalap topish, chang'ida yurish, g'orlarni topish, qoyalarga tirmashib chiqish, tez oqar daryolarda sol bilan yurish, velosiped, motosikl va boshqa texnik vositalarda sayohat qilish turi bilan shug'ullanadilar.

Turizm xalqimizning kundalik turmushiga tobora singib eng qulay va qiziqarli tadbirlardan biriga aylanmoqda.

Turizm o'zining osonligi va qiziqarliligi bilan xalq ommasini o'ziga jalb qiladi, yani turizm bilan shug'ullanishlari uchun aholi o'zining yoshini, jinsini va jismoniy tayyorgarligini hisobga olgan holda u yoki bu turi bilan shug'ullanishlari mumkin.

Turizm o'rta-maxsus kasb hunar ko'lejlari ham fan sifatida o'qitiladi. Shuni qayd qilish lozimki, barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining jismoniy tarbiya dasturiga ham turizm bir bo'lim sifatida kiritilib, u o'quvchi yoshlar hamda talabalarni va bo'lajak mutahassislarni turizm bilan tanishtirish, ularning jismoniy tarbiya dasturidagi turistik meyorlarni bajarishga imkoniyat yaratib beradi.

Turizm asosan 4 ta vazifani hal etadi.

1. Sog'lomlashtirish
2. Bilim berish
3. Tarbiyalash
4. Sport vazifasini hal qilish

Jismoniy tarbiya asosan 3 ta vazifani hal etsa turizm to'rtinchi vazifani hal qiladi, ya'ni turizm hamma sport turlari uchun shug'ulanuvchilarning umum jismoniy, mahsus jismoniy tayhorgarligini taminlabgina qolmay balki, turizm turlari bo'yicha sportchi toifachilarini ham tayyorlaydi.

Turizm o'quvchilar dam olish oromgohlarida bolalarning sog'ligini mustahkamlash, hayot uchun muhim bo'lgan ko'nikma va malakalarini shakllantirishda, ularni do'stlik, birodarlik, intizomlilik, botirlik, dovyuraklilik kabi hislatlarni rivojlantiradi,

shu sababdan o'quvchilar dam olish lagerlarida jismoniy tarbiya rahbari quyidagi vazifalarni bajarishni qat'iy talab qiladi:

1. Turistik sayirlarni o'tkazish uchun sayr yo'l xaritasini o'rganib chiqish va sayr varakasiga tushurish.
2. Turistik sayirlarni o'tkazish uchun yo'l xaritasini varaqasini to'lg'azish.

3. Bir kunlik va ko'p kunlik turistik sayirlarni tashkil qilish usullarni o'rganish, unda kerak bo'ladigan turistik jihozlar, oziq-ovqatlar mahsulotlari, tibbiy xizmat uchun kerakli dorilarni yoddan bilish.

4. Topografik belgilarni bilish, azimut bo'yicha yurish, kompas, xarita, sxema va soatdan foydalanish usullarini bilish.

5. Turistik yurish texnikasi bo'yicha musobaqa o'tqazish, turistik jihozlarni aniq-maqсад yo'lida ishlata bilish.

6. Har doim ertalabki badantarbiya bilan shug'ullantirish, unda sayirda uchraydigan turli to'siqlardan oshib o'tish, sakrash, irg'itish mashqlarini bajarish.

7. Sayr paytida o'quvchilarga olov yoqish, ovqat pishirish usullarini o'rgatish kabi vazifalarni bajarish kerak.

Sayrga tayyorlanish

Turistik sayirlar o'z shakliga ekskursiya va sayirlarga bo'linadi. Ekskursiyalar o'z navbatida tayyorgoh, avtobus, poyezd va suv kemalarida sayr qilish shakliga egadir.

Bunda o'quvchilar dam olishning passiv shaklida, ya'ni kam faol harakat bilan o'tkazadilar.

Bunday sayoxatlar asosan turistik tashkilotlarning maxsus yollanmasi orqali uyushtiriladi.

Buni esa rejalashtirilgan sayohatlar deyiladi.

Sayohatlarning eng faol va qiziqarli shakli turistik sayrlar hisoblanadi. Ular asosan bir kunlik dam olish va ko'p kunlik sayrlar shaklida tashkil qilinadi. Bunday sayirlarni fizkultura jamoalaridagi turistik to'garaklar, o'quvchilar dam olish lagerlari xamda boshqa tashkilotlarda aham uyushtirilishi mumkin.

Bir kunlik dam olish sayrlari atrof muxitni o'rganish bilan birga xordiq chiqarish uchun o'tkaziladi. Uning yurish masofasi 15-20 km dan iborat bo'ladi. Ko'p kunlik turistik sayrlar 2-3 kunlik va 10-15 kundan ortiq bo'lishi mumkin.

Ko'p kunlik sayrga tayyorgarlik qilish tartibi quydagicha bo'ladi:

1. Sayr qatnashchilari guruxini soni kam deganda 6-8 kishidan kam bo'lmasligi kerak.

2. Sayr marshrutini belgilash, uni chuqur o'rganish va sxema, rejasini tuzib chiqish.

3. Kerakli turistik jixozlar (chodir, ryukzak, uxlash qopi), qatnashchilar soniga qarab tayyorlash, zarur bo'lganida ularni ijaradan olish.

4. Sayrda sarf bo'ladigan oziq-ovqatlarning xarajatlarini xisoblash va uning manb'larini aniqlab, masalani xal etish.

5. Sayrga chiqadiganlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish.

6. Turistik sayr uchun marshrut varaqasini tayyorlash va uni tegishli tashkilotlar orqali rasmiylashtirib (ruxsat) olish.

7. Sayrning o'tish joylarini belgilash va uni xaritaga tushirish.

8. Sayrga chiqadigan bolalar uchun oromgoh tibbiy xizmatchisi (vrach) dan ruxsat olish.

9. Xar bir otryad bolalariga aniq vazifa berish (boshlovchi va oxirida yuruvchilarga).

10. Har bir otryad tarbiyachisi yoki otryad boshlig'ini sayrga birga olib chiqish.

11. Oromgoh tibbiy xizmatchilaridan birini sayrga olib chiqish va uni dori-darmon qutisi bilan taminlash.

Turistik sayrga marshrut bo'ylab chiqishdan oldin xar bir o'quvchiga (turistga) ma'lum vazifa topshirish va burchlarini aniq tushuntirib berish, barcha faoliyatlarining o'z vaqtida bajarishi va hech qanday ko'ngilsiz xodisalar yuz bermasligining oldini olishni mo'ljallash.

Xulosa: Fuqorolarning sayohat qilish paytidagi dam olish, erkin xarakatlanish va boshqa huquqlarni taminlash, turistik resuslardan oqilona foydalanish va ularni saqlash, turizm soxasidagi me'yoriy bazasini takominlashtirish, bolalar, yoshlar, nogironlar va aholining kam taminkangan qatlamlari turizmi uchun sharoit yaratish, turistik industriyani rivojlantirish uchun investitsiyalar jalb etish. O'zbekistonda turistik faoliyat bilan shug'ullanish uchun xuquqiy shart-sharoitlar yaratilgan bolsada uning ayrim jihatlarini yanada

takominlashtirish va bugungi kun talablaridan kelib chiqqan xolda qayta ko'rib chiqish lozim.

ta'lim yo'lanishlari o'quv dasturidagi turizm mashg'ulotlarini tashkil qilish va o'tkazish davr talabi xisoblanadi. Bu yo'lda maxsus kadrlar tayorlash, kasb-xunar egalarining turizm sohasidagi bilim va malakalarini chuqurlashtirish, sixat-salomatlikni ta'minlashda, yani sog'lom, barkamol avlodni tarbiyalash asosiy vazifa xisoblanadi.

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. T., 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. T., 2019.
3. P.Абдумаликов Т.Холдоров .”Туризм”. Укув кулланма Тошкент.Укитувчи. 1988.
4. Qosimova R.A. Turizm va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. T., "Aloqachi" nashriyoti. 2008.
5. Журнал.Теория и практика физической культуры и спорта'. (Россия). №11. 1999.
6. Yarashev K.D. Ommaviy sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiya va xalq milliy o'yinlari bo'yicha mutaxassislar tayyorlash masalalari. Monografiya. T., O'zDJTI nashriyoti. 1997

Internet saytlari

1. www.natlib.uz – O'zbekiston Respublikasi Milliy kutubxonasi.
2. www.minsport.uz O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining rasmiy veb-sayti.